


SHAXSNI O'RGANISHDA PROFAYLING VA NOVERBAL
PSIXOLOGIYA

University of Business and Science

Pedagogika va

Psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

G’iyosova SHaxnoza G’anijon qiziIlmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon OdilboyevichORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>Email: haydarbekjurayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsni o‘rganishda profayling va noverbal psixologiya yondashuvlarining nazariy va amaliy asoslari ko‘rib chiqiladi. Maqolada tana tili, mimika, pozitsiya va boshqa noverbal belgilar asosida shaxs xususiyatlarini aniqlashning ilmiy metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jinoyatchilikni aniqlash, xavfsizlikni ta'minlash va psixologik diagnostika sohalarida bu metodlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: profayling, noverbal psixologiya, tana tili, psixologik portret, mimika, kommunikatsiya.


Аннотация: В этой статье рассматриваются теоретические и практические основы подходов профилирования и невербальной психологии к изучению личности. В статье анализируются научные методы определения черт личности на основе языка тела, мимики, позы и других невербальных признаков. Также будет освещена важность этих методов в области выявления преступлений, обеспечения безопасности и психологической диагностики.

Ключевые слова: профилирование, невербальная психология, язык тела, психологический портрет, мимика, общение.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda insonni chuqur anglash va tahlil qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Shu bilan birga, shaxsning ichki holatini, ehtimoliy xatti-harakatlarini, niyatlarini oldindan baholash imkonini beruvchi usullar ham rivojlanmoqda. Psixologiya fanining profayling va noverbal muloqotga oid yondashuvlari shaxsni o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, jinoyatchilikni aniqlash, xavfsizlikni ta’minalash, ishga qabul qilishda xodimni tanlash, psixoterapiya va boshqa sohalarda bu usullar katta ahamiyatga ega. Profayling bu insonning psixologik portretini tuzish orqali uning ehtimoliy xatti-harakatlarini oldindan taxmin qilish usulidir. Noverbal psixologiya esa insonning tana harakatlari, mimikasi, intonatsiyasi, holati kabi og‘zaki bo‘lmagan signallarni tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu maqolada ushbu ikki metodning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Эмоциянинг намоён бўлиши: пушаймонлик, айбдорлик ҳисси. Мос келувчи кичик ифодалар (микровыражения): юз лунжи бироз кўтарилиган, лаб бурчаклари пастга осилган



asoslangan tahlil" deb ta’riflaydi. R. Bandler va J. Grinder esa noverbal signallarni inson ongsiz holatda yuboradigan va qabul qiladigan axborot shakli sifatida ko‘radilar.

Noverbal kommunikatsiya bo‘yicha A. Pease, P. Ekman, D. Morris kabi olimlarning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, P. Ekman inson mimikasi orqali hissiyotlarni aniqlashga oid "Yuzdagи ifodalar orqali yolg‘онни aniqlash" nazariyasini ilgari surgan. Kriminalistika va xavfsizlik sohalarida profayling va tana tili signallarining ahamiyati oshib bormoqda. Ayniqsa, hibsga olingan shaxslar bilan

Adabiyotlar tahlil qilish

Profayling va noverbal psixologiya yuzasidan ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. G. N. Kucherov (2019) profaylingni "insonning psixotipi va xulq-atvorining individual xususiyatlariga

suhbat jarayonida ularning tana tili va mimikasi orqali yolg‘on gapirayotganini aniqlash, ichki holatini baholash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola sifatli tahlil usulida yozilgan bo‘lib, adabiyotlar tahlili, amaliy misollar va ekspert intervylariga asoslanadi. Shuningdek, mimika, holat va tana harakatlari asosida shaxsni tahlil qilishga oid amaliy kuzatuvlar keltirilgan. Profayling asosida shaxsning yoshi, jinsi, kasbi, ta’lim darajasi, ijtimoiy mavqeい, ehtimoliy xulq-atvori kabi belgilar aniqlanadi. Bu yondashuv jinoyatchilik, ekstremistik faoliyat yoki xavfli holatlarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Noverbal psixologiyada esa insonning ko‘z harakati, yuz ifodasi, tana holati, qo‘l harakatlari, tovush ohangi va tana masofasi singari

Asosan shaxslararo munosabatiarda inson yuzida 7 ta asosiy emotsiyalar (yuz ifodalar, his-tuyg‘ular) namayon boladi. Emotsiyalar ham murakkab hissiyorlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biz emotsiyalarni nazorat qila olmaymiz. U baribir bizning yuzimizda namayon bo‘ladi.



7 Asosiy Emotsiyalar.

1. G‘azab
2. Jirkanish
3. Qayg‘u
4. Nafrat
5. Qo‘rquv
6. Baxt
7. Ajablanish



belgilar asosida analiz amalgalashiriladi. Ular shaxsning ichki ruhiy holati, ishonchligi, stress darajasi va niyatini ochib berishga yordam beradi.



Natijalar taxlili

Tahlil natijalariga ko‘ra, profayling va

noverbal psixologiya shaxsni tushunishda va tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan:

1. Profayling jinoyatchining ehtimoliy portretini tuzish, xavfli shaxslarni aniqlashda, foydalaniladi.
2. Noverbal tahlil insonning ichki holatini, yolg‘on gapirayotganini, stressda ekanligini, aniqlashga imkon beradi.
3. Ishga qabul qilish jarayonlarida nomzodning tana tili orqali u haqidagi ko‘plab yashirin belgilar aniqlanishi mumkin.

4. Psixoterapiyada esa bemorning noverbal signallariga asoslanib, uning real holati aniqlanadi.

Shaxsni o‘rganishda faqat an'anaviy testlar, so‘rovnomalar va suhbatlar yetarli emas. Inson ongsiz holatda tana orqali ko‘plab muhim signallar yuboradi. Profiling va noverbal psixologiya metodlari shaxsning ko‘zga ko‘rinmas tomonlarini aniqlashda psixologga, huquq-tartibot organlariga yoki ish beruvchilarga katta yordam beradi. Biroq, bu metodlarni noto‘g‘ri yoki noto‘liq qo‘llash xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ushbu soha mutaxassislari maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi, uzluksiz o‘rganish va amaliyotga ega bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, madaniy farqlar, shaxsiy temperament va ijtimoiy sharoitlar tana tilini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu metodlar kompleks tahlil bilan birgalikda qo‘llanilishi lozim.

Xulosa va tafsiyalar

Profayling va noverbal psixologiya shaxsni chuqur o‘rganishda samarali usullar sifatida shakllanmoqda. Ular nafaqat jinoyatchilikni aniqlash, balki insonlararo munosabatlarni yaxshilash, sog‘lom muloqotni tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ushbu metodlar asosida milliy ilmiy-amaliy markazlar, treninglar va diagnostik dasturlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Ekman, P. (2003). Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication.
- Bandler, R., & Grinder, J. (1975). The Structure of Magic.
- Kucherov, G.N. (2019). Psikhologicheskiy profiling v kriminalistike.
- Pease, A. (2004). The Definitive Book of Body Language.
- Morris, D. (1994). Body Talk: The Meaning of Human Gestures.
- Mehrabian, A. (1981). Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes.
- Jurayev, X. O. (2024). Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o‘z men konsepsiyasining psixologik mexanizmlari. *Science and Education*, 5(9), 237-242.